

**LOGOPEDIK MASHGULOTLARNI TASHKIL ETISHDA O'YINLARNING
KORREKSION AHAMIYATI****Murodjon Xovodillayev***QDPI "Maxsus pedagogika" kafedrası o'qituvchisi***Mo'tabarxon Mamajonova***"Qayta tayyorlov" fakulteti tinglovchisi*

Annotatsiya: *Nutq to'liq rivojlanmagan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun esa logopedik mashg'ulotlar jarayonida logopedik o'yinlar asosida so'z va tovushlarni to'g'ri talaffaz etishni tarbiyalash usullarini qo'llash kerak. Bolaning har bir tovushni to'g'ri talaffuz etishi bu bir murakkab, o'ziga xos ish xisoblanib, ana shu ish nutqni harakatga keltiruvchi va nutqni eshitish analizatorlarining barcha qismlari bir – birlari bilan o'zviy bog'langan holda aniq ishlashini talab etadi.*

Kalit so'z: *Nutq nuqson, o'yin faoliyat, Maktabgacha ta'lim, lug'at*

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqi yaxshi taraqqiy etishi uchun ularning nerv sistemasi, eshitiish va nutq organlari sog'lom bo'lishi lozim. Agar bola yaxshi eshita olmasa, u tovushlarni bir-biridan yaxshi farqlay olmaydi; tomoq burun yo'llari, tishlari sog'lom bo'lmasa, tovushlarni, so'zlarni tog'ri talaffuz eta olmaydi. Nerv asab tizimi nosog'lom-tez qo'zg'aluvchan bo'lsa, bu uning nutqiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida bolaning nutqini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish zarur.

Nutq to'liq rivojlanmagan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun esa logopedik mashg'ulotlar jarayonida logopedik o'yinlar asosida so'z va tovushlarni to'g'ri talaffaz etishni tarbiyalash usullarini qo'llash kerak. Bolaning har bir tovushni to'g'ri talaffuz etishi bu bir murakkab, o'ziga xos ish xisoblanib, ana shu ish nutqni harakatga keltiruvchi va nutqni eshitish analizatorlarining barcha qismlari bir – birlari bilan o'zviy bog'langan holda aniq ishlashini talab etadi. Uch yoshli bolalarning ko'pchiligida tovushlarni talaffuz etishning patologik kamchiligi emas, balki fiziologik kamchiligi uchrab turadi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, uch yoshli bolalarda markaziy eshituv va nutq apparatining ishi hali takomillashmagan bo'ladi. Markaziy eshituv organi bilan nutq apparati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mustahkam va yetarli darajada bo'lmaydi, periferik nutq apparatining muskullari esa hali kuchsiz harakat qiladi. Bularning barchasi bola nutq organlari harakatlarining yetarli miqdorda aniq bo'lmasligiga, tovushlarni eshitish orqali aniq ajrata olmasligiga olib keladi.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz etishning asosiy shart –sharoitlaridan biri artikulyasiya apparati organlarining harakatchanligi va bulardan bolalarning foydalana olish qobiliyatidir. Buning uchun xonada eng avvalo osoyishtalik bo'lish lozim. Baland ovoz bilan so'zlashishga, radioni yoki musiqalarni baland ovozda qo'yib qo'yishiga yo'l

qo'ymas kerak. Chunki bularning barchasi bolalarning ham mustahkamlanmagan nerv asab tuzilishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachining hadeb baland ovozda gapiraverishi ham bolani uning so'zlariga be'etibor bo'lib qolishiga olib keladi. Bu degani faqat jimjitlik bo'lishi kerak, degani emas, ahir bolalar o'ynaganlarida bir-birlari bilan so'zlashadilar. Tarbiyachining logoped esa bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlashi va turli logopedik o'yinlar asosida bolalarning so'z va tovushlarni talaffuz etishlarini tarbiyalashi kerak. Buning uchun bog'chaga kelgan kunidan boshlaboq nutq nuqsoniga ega bolaning qanday so'zlashishi tekshiriladi. Masalan, bola bilan individual so'zlashish jarayonida, yoki kichkintoylar bilan o'yin paytida so'zlashishi tekshirib boriladi. Bundan tashqari logoped-tarbiyachi logopedik o'yinlar jarayonida nutq nuqsoniga ega bolalarga so'zning boshida, o'rtasida va oxirida keladigan tekshiriladigan tovushli rasmlarni ko'rsatib, "Topchi bu nima deyiladi?" deb so'raydi. Bola esa sifatda ifodalangan buyumni: "luchka," "Taptal", "kalam", "Bujoq", "Xo'roz", "Mishu", "Mashina" deb izohlaydi. Ularning bu javoblari logoped tarbiyachi tomonidan daftarga qayt etib boriladi. Tekshirishni odam ma'nosi va yuz qismlarini nomini aytirish orqali ham davom ettirish mumkin. Masalan: soch, bosh, til, bo'yin, elka, burun, qorin, barmoq, qo'l, oyoq va hakoza.

Logopedik mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi logoped har kuni 3-4 bolaning nutqini tekshirib borsa, tez orada bunday bolalarning barchasida tovush talaffuzining ahvoli bilan yaxshi tanish bo'ladi va bu axborotni kundalik ish faoliyatida bolalarni ko'zatish jarayonida to'ldirib boradi. Ma'lumki so'zning tovush tarkibini to'g'ri idrok qilish aynan shu so'zning to'g'ri esda qolishini ta'minlaydi. Nutq va so'zlardagi tovushlarni idrok qilishi va yaxshi tushunish uchun esa eshitish nutqini rivojlantiruvchi logopedik o'yinlar nutq nuqsoniga ega bolalar uchun o'tkaziladi. Masalan tarbiyachi logoped: "Men nima dedim?" deb bolalardan bir necha metr narida turadi. Keyin bolalar eshitib topishlari uchun lozim bo'lgan so'z yoki jumlani avval sekin, keyin shivirlab talaffuz etadi. Bolalarga o'yin qoidasi tushuntiriladi, mana bunday: "men bir so'zni sekin aytaman siz diqqat bilan eshiting, nima aytishganini toping. Men kimni chaqirsam, shu bola nima eshitganini aniq va baland ovoz bilan aytib beradi." Bunday didaktik o'yinlar dastlab ko'rsatma materiallar bilan o'tkaziladi. Deylik bolalar oldida turgan o'yinchoqning nomini sekin aytadi va bolalarga qiyin bo'lmagan topshiriq beradi: "Lola qo'g'irchoqni karovatga yotqiz", "Anvarjon, bayroqchani stolga qo'y", Logoped tarbiyachi bu so'zlarni va topshiriqlarni bolalarga qarab turib beradi. Bu esa bolalarning aytilgan so'zlar artikulyasiyasini ko'rib tez topishlariga yordam beradi. Bu o'yin bir necha bor takrorlagach, o'yin topshirig'i murakkablashtiriladi. Ya'ni logoped tarbiyachi so'zini bolalarning orqqasida turib talaffuz etadi, topshiriq esa bir marta aytiladi.

5-6ta bolalar chiqib, nima eshitganlarini aytadilar. Kim to'g'ri topganligi aniqlanadi. Asta-sekin bu o'yin variantlari murakkablashtirib boriladi. Masalan, eshitilishi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni topish taklif etiladi. ("ko'p"- "ko'k", "yil"- "yo'l" "suv"- "sut", "tis"- "tiz", "tuz"- "tus")

Logoped mashg'ulotlar jarayonida nutq nuqsoniga ega bolalar uchun nafaqat bu kabi didaktik o'yinlardan balki eshitish idrokini o'stirish uchun radio va gramplastinkalarni eshitirish usullaridan ham foydalaniladi. Bu o'yinlar davomida bolalarga eshitgan narsalarni talaffuz etish taklif qilinadi. Bolani shoshmasdan so'zlashga, har bir jumlaning so'zlab gapirib bo'lgandan keyin pauza qilishga odatlantirish kerak. Chunki nutq tezlashgan bola entikadi, so'zning oxirini jamlab yuboradi. Shuning uchun logoped tarbiyachining vazifasi bolani so'zlash jarayonida to'g'ri nafas olishga o'rgatish va nutq davomida bolaning nafas olishida uchraydigan nuqsonlarni yo'qotib borishdir. Nutqsiz nafas olish bir-biridan farq qiladi. Farqi shundaki, nutqsiz nafas olish chiqarish vaqti barobar, ya'ni tartibli navbatlashib turadi, nafas burun orqali olinadi. Nutqda nafas olganda nafas olish vaqti tezlashadi, nafas chiqarish nafas olishga qaraganda birmuncha uzun bo'ladi. Nafas ham og'iz, ham burun orqali olinadi. Nutq vaqtida uzoq nafas chiqarish bolaning yoshiga mos bo'lishi kerak. Kichik guruhlarda bola nafas chiqarish vaqtida 2-3 so'zlik jumlaning, o'rta yoki katta guruhlarda bolalar esa 3-5 so'zlik jumlaning talaffuz etishi lozim.

Demak, logopedik mashg'ulotlar jarayonida nutq nuqsoniga ega bolalar uchun logoped o'yinlar asosida so'z va tovushlarni talaffuz etishni tarbiyalashda nafas olish tovush chiqarish va nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lar ekan. Chunki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tovushlarini talaffuz etishlari nutq harakatga keltiruvchi apparatning shunga bog'liqdir. Shuning uchun bolalarda tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni tarkib topdirib borish bilan birga alohida nutq a'zolarini harakatga keltiruvchi apparatlarini: lab, til, tish, luj muskullarini doimiy mashq qildirib borish va jag'ning harakatchanligini o'stirish lozim.

Nutq nuqsoniga ega maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish uchun logoped tarbiyachi bunday bolalar bilan tovush talaffuzi va diksiya ustida ishlashi, aniqrog'i, muntazam ish olib borishi darkor. Tovush talaffuzi mashg'ulotlari muntazam, shu bilan birga, sistemali ravishda o'tkazilishi kerak. Ko'pincha artikulyatsion mashqlar ham o'yin tarzida o'tkaziladi. Bunda bolalar aytilishi lozim bo'lgan so'zlarni bir necha bor takrorlaydilar. Bu kabi logopedik o'yin mashg'ulotlarini o'tkazishning bir qancha metodik turlari bor. Masalan, ko'rsatmali materiallardan foydalanib o'tkaziladigan o'yinlarda aytilishi lozim bo'lgan tovushlar ishtirok etadigan o'yinchoqlar to'plami bilan "Bu kimning o'yi" o'yinini o'ynash mumkin. Nutq kamchiligiga ega maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar bilan so'zlarni to'g'ri talaffuz etish yuzasidan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarning ahamiyati kattadir. Chunki bolalar nutqining ravon bo'lishi juda ham muhimdir. Ayniqsa ashulali o'yinlarda, qiyin bo'lmagan she'rlarni aytish jarayonida logoped tarbiyachi bolalarga tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishini ko'rsatadi, bolalar esa unga taqlid qilish orqali o'z nutq a'zolarini mashq qildiradilar. Tovushga taqlid qilishida hayvon yoki ovoz chiqaruvchi narsalarning ovozigacha to'liq o'xshashiga harakat qilmaslik kerak. Tovushlarga taqlid qilish mashg'ulotlarida artikulyatsiya harakatlari asta-sekin

qiyinlashib boradigan tovushlardan foydalanish mumkin. Masalan, avtomobil bi-bip, tramvay dindin, soat tik-tik, bolg'a urish tuk-tuk, poezd pu-pu, yoki pit-pit-pit, sigir mumu, qarg'a qar-qar, samaliyot r-r-r. Demak artikulyatsiya va burro gapirishini (duksiya) tarbiyalashda tovushlarni aniq hosil qilish uchun nutq apparatining to'g'ri holatda turishi va ishlashiga erishish lozimdir. Nutq kamchiligiga ega bolalarda nutqning nonaqligi sabablari-labning bo'shashi, tilning sust, erinchoq harakat qilishi, pastki jag'ning kam harakatlanishi natijasida og'izning yomon ochilishi kabi hollari uchrab turadi. Logopedning tarbiyachining vazifasi esa bunday bolalarda nutq a'zolarining harakatini rivojlantirish yo'li bilan burro gapirish diksiyani tarbiyalashdir. Artikulyatsiya va diksiyani tarbiyalashga yordam beradigan asosiy vositalardan biri bu bolalarning tovushlarga taqlid qilib o'ynaydigan o'yinlaridir. Bunday o'yinlar ularda nafaqat artikulyatsiya va diksiyani, balki umumiy nutq malakasi: su'rat, ritm, ovoz ham tarbiyalanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Murodjon, Xovodillayev, D. Abdurazoqova, and Ortiqov Muhtorilla. "9-13 YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISH ISHLAR TIZIMI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
2. Xovodillayev, M. X., and Nazorova Qizlarxon. "NUTQ NUQSONLARINI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH ISHLARINI TASHKIL ETISH." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
3. Xovodillayev, M. X., Qodirov Dilyor, and Xudoyberdiyev Javohir. "OG'IR INTELEKTUAL NUQSONGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
4. Xabibullo o'g'li, Xovodillayev Murodjon, and Komilov Otabek Iqboljon o'g'li. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." Science Promotion 2.1 (2023): 28-34.
5. Islomjon, Haydarov, Nabiyeva Nozimakhan, and Odilova Rushanabobu. "METHODS OF TEACHING PRONUNCIATION TO CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." E Conference World. No. 3. 2023.
6. Islomjon, Haydarov, Nabiyeva Nozimakhan, and Odilova Rushanabobu. "METHODS OF TEACHING PRONUNCIATION TO CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." E Conference World. No. 3. 2023.
7. Islomjon, Haydarov, and Tursunova Nilufar. "PRONUNCIATION LESSONS FOR HEARING-IMPAIRED CHILDREN." E Conference World. No. 3. 2023.
8. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISHNING ASOSIY

METODI SIFATIDA-TAJRIBA METODI VA AMALIY ISHLAR." HOLDERS OF REASON 1.1 (2023): 36-40.

9. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISH QOBILIYATINI BUZILISHI VA YO'QOTISH SABABLARI." Conferencea (2023): 83-86.

10. Hatamjon O'g'li, Haydarov Islomjon. "PECULIARITIES OF THE USE OF SCIENCE TEACHING METHODS IN A SCHOOL FOR HEARING IMPAIRED CHILDREN." International Journal of Pedagogics 3.11 (2023): 1-5.

11. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI." Science Promotion 1.2 (2023): 18-25.

12. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o'g'li. "INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI." Science Promotion 1.1 (2023): 50-57.

13. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "INCLUSIVE EDUCATIONAL STRUCTURE AS A SOCIAL PHENOMENON." (2023).

14. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Inclusive Education System Progress of the Process." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 199-206.

15. Turgunovna, Yuldoshova Dilbar, and Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "Pedagogical Mechanism Of Preparing Future Teachers For Professional Competence Formation." Onomázein 62 (2023): December (2023): 2186-2191.

16. AFRUZAXONIM, OLIMJONOVA MOXICHEXRA TOSHKENBOYEVA NAFOSATXON XAMDAMOVA, and MUHTOROVA MAFTUNA. "BO 'LAJAK DEFEKTOLOGLARNI OILA BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI." Confrencea 12.12 (2023): 577-588.

17. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Babayeva Azizabonu Hamidjonovna, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "TEACHING SPEECH FORMATION TO PRESCHOOL-AGE DYSARTIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 52-55.

18. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Havodullayev Murodjon, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "ORIGIN OF DYSLALIA AND WAYS OF ITS ELIMINATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 48-51.

19. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, and Babayeva Azizabonu Hamidjonovna. "USE OF WORD FORMATION MODELS IN DYSARTHIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 61-64.

20. Azizabonu, Babayeva, and Kabirova Zarnigor. "METHODOLOGY FOR CHECKING THE SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL

RETARDATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 40-43.

21. Zarnigor, Kabirova, Erkaboyeva Ozoda, and Raimjonova Gulsanam. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR IDROKINI TEKSHIRISH YO'LLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

22. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EDUCATION AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE AND FORMATION OF FUTURE LOGIC THERAPISTS." GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) (2023).

23. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "STAGES OF DEVELOPMENT OF TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE." NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal (2023).

24. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "Methods of Pedagogical-Psychological Correction of Future Logic Therapists with Special School Children." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 1.10 (2023): 37-40.

25. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "KOGNITIV JARAYONLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 53-60.

26. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISHI QONUNIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 61-69.

27. Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjan. "METHODS OF STUDYING THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF MENTALLY WEAK STUDENTS OF Q HOME CLASS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES."

28. O'gli, Nabiye Ravshanjan Shavkatjon. "Methods of studying the educational activity of mentally weak students of Q home class on the base of innovative technologies." Asian Journal of Multidimensional Research 11.12 (2022): 21-25.

29. Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjan. "INTELEKTIDA NUQSONI BO 'LGAN O 'QUVCHILARNING XULQ-ATVORINING O 'ZIGA XOSLIGI." (2023): 140-145.

30. Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjan. "TA'LIM JARAYONIDA AUTIZMLI FARZAND TARBIYALAYOTGAN OTA-ONALAR BILAN ISHLASH USULLARI." (2023): 128-132.

31. Shavkatjon o'g'li, Nabiye Ravshanjan. "CONDUCT A CULTURE OF STUDENTS WHO ARE DEFICIENT IN INTELLIGENCE THE WAY OF THE

FORMATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3 (2023): 551-557.

32. Nabiyeu, Ravshanjon, and Otabek Ahmadaliyev. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQ XUSUSIYATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH." Евразийский журнал академических исследований 3.10 (2023): 363-367.

33. Nabiyeu, Ravshanjon, and Otabek Ahmadaliyev. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQ XUSUSIYATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH." Евразийский журнал академических исследований 3.10 (2023): 363-367.